



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyoqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodat Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraxon Botiraliyevna</i>	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	



O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORINI PSIXOLOGIK O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Norqulova Dildora Shavkat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali
ijtimoiy psixologiya magistranti

Annotatsiya: O'smirlarda agressiv xulq – atvor, o'smirlarda agressiv xulq – atvorni kontseptsiyasivoriga ta'sir etuvchi omillar, o'smirlar davri bilan bog'liq psixologik xususiyatlar, frustratsiya agressiyaga moyilligi, "sog'lom – simptomatik patologik" mezoni asosida baholanishi.

Kalit so'zlar: o'smirlar, agressiv xulq – atvor, Oila muhiti ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy og'ishlar, frustratsiya.

Abstract: Aggressive behavior in adolescents, aggressive behavior in adolescents - factors influencing the concept of autonomy, psychological characteristics associated with adolescence, frustration tendency to aggression, assessment based on the criterion of "healthy - symptomatic - pathological".

Key words: adolescence, aggressive behavior, Family environment, social values, socialization, social deviations, frustration.

Аннотация: Агрессивное поведение у подростков, агрессивное поведение у подростков – факторы, влияющие на концепцию автономии, психологические особенности подросткового возраста, фрустрационная склонность к агрессии, оценка по критерию "здоровый – симптоматический – патологический".

Ключевые слова: подростковый возраст, агрессивное поведение, семейная среда, социальные ценности, социализация, социальные отклонения, фрустрация.

KIRISH

O'smirlar davri inson hayotidagi eng muhim psixologik shakllanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda shaxsning ichki dunyosi, o'z-o'zini anglash darajasi, mustaqil qaror qabul qilishga intilishi va ijtimoiy faolligi keskin o'zgarishga uchraydi. Aynan shu davrda ko'plab psixologik muammolar, jumladan, tajovuzkorlik (agressivlik) holatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Agressiv xulq-atvorni o'rganishda psixologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri alohida ahamiyatga ega. Zero, o'smirlarning harakatlari ko'p hollarda u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy holat, oilaviy tarbiya va tengdoshlar guruhi bilan bog'liq bo'ladi. Agressiv xulq-atvor o'z-o'zidan shakllanmaydi. Unga zamin hozirlaydigan ijtimoiy sharoitlar, xususan, oiladagi befarqlik, maktabdagi psixologik bosim, atrof-muhitdagi adolatsizlik va tengsizlik, shuningdek, yetarli darajadagi emosional qo'llab-quvvatlashning yo'qligi asosiy omillardan hisoblanadi.

O'smirlar tajovuzkorlikni ko'pincha o'zlarini himoya qilish yoki jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlash vositasi sifatida qo'llaydilar. Ayniqsa, o'zini jamiyatda rad etilgan, noto'g'ri tushunilgan yoki e'tibordan chetda qolgan deb hisoblovchi o'smirlar tajovuzkorlik orqali o'z hissiy og'riqlarini tashqi muhitga ko'chirishga urinadilar. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy munosabatlarda muammolar, ijtimoiy ajralish va norozilik holatlarini kuchaytiradi. Oila muhitining o'smir shaxsiga ko'rsatadigan ta'siri psixologik jihatdan chuqur ahamiyat kasb etadi. Oilada emosional beqarorlik, ortiqcha jazolash yoki befarqlik mavjud bo'lsa, bu holat o'smir psixikasida salbiy iz qoldiradi. Shu nuqtai nazardan qaranganda, ota-onaning farzandga nisbatan munosabati, u bilan muloqot sifati va hissiy yaqinligi agressivlikning paydo bo'lishida asosiy vositachilardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Oilaviy nizolar, ajrimlar, nazoratning sustligi yoki haddan ziyod qat'iyati o'smirda ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi va bu oxir-oqibat tashqi tajovuz ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'smir shaxsining tengdoshlar guruhi bilan bo'lgan ijtimoiy munosabatlari ham uning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar o'smir salbiy xatti-harakatlarni normal holat deb biladigan guruh a'zolariga qo'shilsa, u o'z shaxsiy qoidalarini emas, balki guruh ichki qonun-qoidalarini ustuvor deb hisoblay boshlaydi. Bunday guruhlarda tajovuzkorlik



o'zaro munosabatlarni hal qilishda asosiy vosita sifatida targ'ib qilinadi. Natijada, o'smir doimiy ravishda tajovuz orqali o'zini tasdiqlashga, kuchliroq ko'rinishga va xavfli sharoitlarda omon qolishga harakat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar va internet tarmoqlari kengaygan bir sharoitda ommaviy axborot vositalari ham o'smir agressivligining shakllanishida muhim ijtimoiy omilga aylangan. Ijtimoiy tarmoqlarda kuch ishlatish, haqorat, virtual zo'ravonlik va tazyiq sahnalari yosh ongga kuchli emotsional bosim o'tkazadi. O'smir bunday sahnalardan ijobiy axloqiy saboq olish o'rniga, ularni real hayotdagi muomala usuli sifatida qabul qilib, o'z tajribasida tatbiq qilishga urinadi. Ayniqsa, qahramonlar obrazidagi zo'ravonliklarni idealizatsiya qilish holatlari salbiy psixologik oqibatlarga olib keladi.

O'smirlar tajovuzining ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilishda yana bir muhim omil – bu ijtimoiy profilaktika va psixologik yordam tizimining mavjudligi yoki yo'qligidir. Agar ijtimoiy tizim o'smirning agressivligini vaqtda aniqlash, uni tushunish va konstruktiv yo'nalishga burish uchun yetarli darajadagi tashkiliy va mutaxassislik yondashuvlariga ega bo'lmasa, bunday xatti-harakatlar doimiylik kasb etadi. Shu sababli o'smirlarga nisbatan olib boriladigan psixologik va ijtimoiy ishlarda korreksion metodlar, ijtimoiy treninglar, muloqot madaniyatini o'rgatuvchi mashg'ulotlar, stressni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiruvchi yondashuvlar samarali vosita sifatida qo'llanishi lozim.

Zamonaviy psixologiyada o'smirlar agressiv xulq-atvori shaxs rivojlanishidagi murakkab va ko'p omilli hodisa sifatida talqin etiladi. Kriminologik adabiyotlarda voyaga yetmaganlarning tajovuzkor xatti-harakatlarini tasniflashda ularning shaxsiy psixologik xususiyatlari va jinoyat sodir etish tajribasiga asoslanilgan holda to'rt asosiy guruh ajratiladi.

Birinchi toifadagilarga bunday xatti-harakatni ilk bor amalga oshirgan shaxslar kiradi. Ularning avvalgi xulq-atvori, odatda, ijobiy bo'lib, tajovuz harakatlarini favqulodda psixologik bosim yoki og'ir holat natijasida sodir etgan bo'lishadi. Ushbu holatlarda jinoyat ongli niyat bilan emas, balki bevosita ta'sir ostida yuzaga keladi.

Ikkinchi guruhga mansub shaxslar esa tajovuzkor harakatni ilk bor amalga oshirgan bo'lishsa-da, ularning ilgari ko'rsatgan xulq-atvori, axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy fe'l-atvori bilan bog'liq muammolar mavjud bo'ladi. Ular orasida turli zararli odatlarga, masalan, spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarga ruju qo'yish, uy sharoitidan begonalashish, beqaror muhitga intilish holatlari kuzatiladi. Ularning xulqi ijtimoiy me'yorlarga nisbatan sust moslashgan bo'ladi.

Uchinchi toifaga esa ijtimoiy-psixologik jihatdan barqaror bo'lmagan, ilgari ham noqonuniy harakatlar sodir etgan va ularni jazolash choralari ko'rilgan shaxslar kiradi. Ular ba'zida maxsus nazoratdagi muassasalardan yoki kasb-hunar tizimiga oid yopiq o'quv yurtlaridan yo'naltirilgan bo'ladi. Bu shaxslar tajovuzkor harakatni ongli tarzda, ko'pincha jinoiy niyat va manfaat asosida amalga oshiradilar. Ularning faoliyatida kuch ishlatish, mol-mulk talashish, zo'ravonlik orqali ta'sir o'tkazishga urinish keng tarqalgan.

To'rtinchi guruhga esa jiddiy axloqiy buzilishlarga ega, jamiyat uchun xavfli deb baholanadigan shaxslar kiradi. Ular ilgari sudlangan bo'lishi yoki jinoiy guruhlar tarkibida ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Ularning asosiy hayotiy qadriyatlari – boylik orttirish, zo'ravonlik orqali kuch ko'rsatish, qimor, spirtli ichimliklar yoki beqaror turmush tarziga bog'lanib qolgan bo'ladi. Bunday shaxslar jamiyatning asosiy axloqiy me'yorlarini inkor etadi va o'z xatti-harakatlarini asoslashga urinishadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'smir yoshdagi shaxslar odatda ta'sirchan bo'lib, ular ongli tanlov qilmasdan tashqi muhit ta'siriga beriluvchan bo'lishadi. Tashqi ijtimoiy bosim, ayniqsa, jinoiy faoliyatga moyil kattalar yoki o'ziga o'xshagan tajovuzkor do'stlar ta'siri ostida ular noto'g'ri yo'ldan yurishga moyillik bildiradilar. Ba'zida ular salbiy muhitda o'sib, oilada e'tibor yetishmaganligi sababli jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadida o'zini dovyurak, qat'iyatli shaxs sifatida namoyon qilishga harakat qiladi.

Ko'plab o'smirlar yetarli darajada tarbiya ko'rmaganligi sababli, ularning xatti-harakatlarida qo'pollik, ziddiyatga moyillik, sabrsizlik va emotsional beqarorlik ustun bo'ladi. Ular bilan muomala qilishda ana shu omillarni hisobga olish lozim. Bundan tashqari, ushbu yosh guruhiga yolg'on gapirish, o'zini ko'rsatishga bo'lgan ortiqcha ishtiyoq, noto'g'ri tushunilgan do'stlik va sadoqat tushunchalari ham xos bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilar agres-siyani faqat deviant xulq shakli sifatida emas, balki yosh davri inqirozi bilan bog'liq psixologik reaksiya sifatida ham baholaydilar¹. Shu sababli o'smirlarda agressiyasini o'rganish maxsus metodologik va etik yondashuvni talab qiladi. O'smirlik davri bilan bog'liq psixologik xususiyatlar L.S. Vigotskiy o'smirlik davrini shaxs rivojlani-shidagi keskin burilish nuqtasi deb ta'riflaydi. Psixologik olimning qarashlarida "O'smirlik – bu shaxsning ichki pozitsiyasi tubdan o'zgaradigan, affektiv va ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashadigan davrdir"² takidlaydi.

¹ Craig G. Human Development. NJ, 2000.

² Vyotskiy L.S. Psixik rivojlanish muammolari. M., 1984.



Aynan mazkur davrda: hissiy beqarorlik kuchayadi; impulsiv reaksiyalar ustunlik qiladi; o'zini nazorat qilish mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Shu bois agressiv xulq-atvorni o'rganishda uni yoshga xos norma va patologik og'ishdan farqlash muhim metodologik vazifa hisoblanadi³.

Amerikalik sotsiolog va psixolog R. Merton tomonidan ishlab chiqilgan "anomiya" tushunchasi shaxs xulq-atvoridagi ziddiyatli holatlarni tavsiflash uchun yangicha mazmunga ega bo'ldi. Bu atama ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, "axloqiy inqiroz" degan ma'noni bildiradi. Merton ijtimoiy qadriyatlar va ularga erishish imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblikdan kelib chiqadigan psixologik bosim holatlarini aniqlash maqsadida anomiyani o'z tadqiqotlarida asosiy tushuncha sifatida qo'llagan. U bu holatga javob sifatida shaxslar tomonidan namoyon bo'ladigan besh turdagi reaksiyani tavsiflab bergan.

Birinci guruhga kiruvchilar – konformistlar – jamiyat tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlar va ularga erishish vositalariga sodiq qoladilar. Ular muvaffaqiyatga erishsa ham, erishmasa ham o'z ijtimoiy pozitsiyasini o'zgartirishga intilmaydi. Odatda bunday kishilar jamiyatning ko'pchilik qismini tashkil etadi.

Ikkinchi turdagilar esa innovatorlar hisoblanadi. Ular jamiyat belgilagan qadriyatlarga e'tibor beradi, biroq ularga erishishda qonuniy bo'lmagan yo'llardan ham foydalanish ehtimoli yuqori. Ularning faoliyatida qonun doirasidan chiqish orqali maqsadga erishishga intilish kuzatiladi. Bu shakl ko'pincha jinoyat sodir etishga moyillik bildiruvchi shaxslarga xos.

Uchinchi guruh – ritualistlar – mavjud qadriyatlarga shaklan amal qiladi, biroq ularga erishish maqsadi o'z mohiyatini yo'qotgan bo'ladi. Ular ijtimoiy qoidalarni mexanik tarzda, maqsadsiz bajaradilar. Bunday kishilar odatda barqaror, biroq istiqbolsiz hayot tarziga ega, ko'proq oddiy va sust faoliyatlar bilan shug'ullanadilar.

To'rtinchi toifaga mansublar esa retreastistlar bo'lib, ular na ijtimoiy qadriyatlarni, na ularga erishish vositalarini qabul qiladi. Ular jamiyatning asosiy talablari va qadriyat tizimidan chetda turishga intiladilar, ko'pincha ijtimoiy chekinish holatida yashaydilar.

Beshinchi tip vakillari esa isyonchilardir. Ular mavjud ijtimoiy tartibni tan olmaydi va yangi qadriyatlar tizimini yaratishga, ijtimoiy tizimni tubdan o'zgartirishga intiladilar. Bunday shaxslar odatda radikal ijtimoiy-siyosiy harakatlarga yaqin bo'lishi mumkin.

R. Mertonga ko'ra, o'smirlarda agressiv xulq-atvor jamiyat maqsadlari bilan ularga erishish vositalari o'rtasidagi nomuvofiqlik – anomiya natijasida shakllanadi. Agressiya bu ijtimoiy moslashuvning deviant shaklidir deb takidlaydi.

Merton ushbu nazariyani ishlab chiqishda E. Dyurkgeym tomonidan ilgari surilgan anomiya kontseptsiyasiga tayanadi. Aynan Dyurkgeymning fikricha, jamiyatda eski me'yorlar buzilib, yangilari shakllanmay qolgan davrda tartibsizlik va noaniqlik kuchayadi. Bu holat shaxslar ongida tashvish, xavotir, depressiv kayfiyatni uyg'otadi va hatto o'z joniga qasd qilish xavfi ortadi. Merton esa anomiyani ijtimoiy qadriyatlar bilan ularni amalga oshiruvchi vositalar o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladigan bosim holati sifatida talqin qiladi.

Agressiv xulq-atvor shakllarining xilma-xilligi (polimorfizm). O'smirlarda agressiya turli shakllarda namoyon bo'ladi. Amerikalik psixologik A. Buss agressiyani quyidagicha izohlaydi: "Agressiya – deydi – bu boshqa shaxsga jismoniy yoki psixologik zarar yetkazishga qaratilgan xulq-atvor shaklidir"⁴.

Psixologik tadqiqotlarda o'smir agressiyasi: jismoniy, verbal, bilvosita, passiv, autoagressiv ko'rinishlarda namoyon bo'lishi aniqlangan⁵. A. Buss agressiyani shaxsning barqaror xususiyati va turli shakllarda namoyon bo'ladigan xulq-atvor sifatida talqin qilgan hamda uni o'lchashning ilmiy metodlarini ishlab chiqqan. Shu sababli agressiyani o'rganish bitta test bilan cheklanmaydi, balki kompleks metodlar majmuasini talab qiladi. Agressiyaning vaziyatga bog'liqligi (situativlik). J. Dollard va hamkorlari agressiyani frustratsiya bilan bog'lab izohlaydi: "Har qanday agressiya frustratsiya bilan bog'liq bo'lib, frustratsiya agressiyaga moyillikni yuzaga keltiradi"⁶.

J. Dollard – frustratsiya–agressiya gipotezasi muallifi bo'lib, agressiyani ehtiyoj va maqsadlarning to'sqinlikka uchrashi natijasida yuzaga keladigan reaksiya sifatida talqin qilgan. Uning qarashlarida quyidagi fikrni ilgari suradi: Har qanday agressiya frustratsiya natijasidir va har qanday frustratsiya agressiyaga olib keladi.

O'smirlarda frustratsiya: o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik, tengdoshlar bilan nizolar, ota-ona nazoratining kuchayishi natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan agressiv xulq-atvorni o'rganishda vaziyat tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhitning yetakchi roli haqida mashhur Kanalik- amerekalik psixolog A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazaryasi asoschisi -- ijtimoiy o'rganish nazariyasida agressiyani o'rganiladigan xulq shakli sifatida asoslaydi: "Agressiv xulq bevosita tajriba orqali emas, balki kuzatish va modellastirish orqali o'zlashtiriladi"⁷.

3 Elkonin D.B. Yosh davrlari psixologiyasi. M., 1971

4 Buss A. The Psychology of Aggression. NY, 1961.

5 Buss A., Perry M. Aggression Questionnaire. 1992.

6 Dollard J. et al. Frustration and Aggression. Yale, 1939.

7 Bandura A. Social Learning Theory. 1977.



O'smirlarda agressiyasini o'rganishda: oila muhitidagi munosabatlar, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari tizimli ravishda tahlil qiladi. A. Banduraning mashxur tajribasi ya'niki "Bobo doll" eksperimentida – bolalarda agressiv xulq – atvor kattalarni kuzatish orqali shakllanishini aniqlagan. Aksariyat ilmiy manbalarda ijtimoiy xatti-harakatlar "me'yoriy" va "og'ishgan" shakllarga bo'linadi. Fransuz psixologi J. Godfrua og'ishgan xatti-harakatlarni tahlil qilishda eng avvalo "qanday holatni normal deb hisoblash mumkin?" degan savol asosiy o'rinda turishini ta'kidlaydi. Chunki jamiyatda har doim qat'iy tarzda "me'yoriy" va "anormal" degan mezonlarni ajratib olish qiyin kechadi.

J. Godfrua ko'ra, o'smirlik davrida agressiv xulq-atvor biologik yetilish, psixologik ziddiyatlar va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi deb takidlaydi. Og'ishgan xatti-harakat psixik holatlar doirasida o'ziga xos psixologik fenomen sifatida ko'riladi. Tibbiy yondashuvda bu holat "sog'lom – simptomatik – patologik" mezonni asosida baholanadi. Ijtimoiy psixologik yondashuv esa bunday xatti-harakatni "ijtimoiylashuv – moslashmovchilik – ijtimoiy yakkalanish" chizig'i asosida izohlaydi. Bu tushunchaning murakkabligi shundaki, u bir nechta fanlar – sotsiologiya, huquq, psixiatriya, klinik psixologiya bilan o'zaro bog'liq holda tadqiq qilinadi. Agressiyaning himoya funksiyasi sifatida K. Xorniy agressiyani shaxsning ichki xavotiriga nisbatan himoya reaksiyasi sifatida talqin etadi: "Agressiya ko'pincha shaxsning o'zini himoya qilishga qaratilgan nevroitik strategiyasidir"⁸.

O'smirlarda agressiv xulq: past o'zini baholashni yashirish, o'zini tasdiqlash, psixologik noqulaylikni kamaytirish funksiyasini bajaradi. Psixologik o'rganish metodlarining o'ziga xosligi haqida taniqli rus olimi A.G. Asmolov ta'kidlaganidek: "Shaxs xulq-atvorini o'rganishda uni ijtimoiy faoliyat va munosabatlar tizimidan ajratib bo'lmaydi"⁹.

Asmolovning qarashlariga ko'ra, agressiv xulq-atvor: o'smirning ijtimoiy muhitda o'z "Men"ini topa olmasligi, shaxsiy ma'no inqirozi va faoliyatdagi cheklanishlar natijasida yuzaga chiqadi. Ya'ni agressiya – bu biologik instinkt emas, balki rivojlanishdagi ijtimoiy-psixologik buzilish signali. Shu bois o'smirlarda agressiyani o'rganishda: yoshga mos psixodiagnostika, kuzatuv va suhbat, ekspert baholash birgalikda qo'llaniladi. O'smirlarda agressiv xulq-atvorni psixologik o'rganish: yosh davri xususiyatlarini hisobga olish, agressiyaning ko'p shaklliligini tahlil qilish, vaziyat va ijtimoiy muhitni inobatga olish, etik va rivojlantiruvchi yondashuvni ta'minlash kabi o'ziga xos ilmiy talablarni o'z ichiga oladi.

XULOSA

O'smirlik yoshi – bu shaxsiy o'zgarishlar, emotsional noturg'unlik va mustaqillikka bo'lgan kuchli intilish davridir. Shu jarayonda ichki ziddiyatlar va o'zini tasdiqlashga bo'lgan ehtiyoj agressiv harakatlar orqali ifodalaniishi mumkin. Bu yoshdagi shaxslar ko'pincha hissiyotlarini to'liq boshqara olmaydi va tashqi ta'sirlarga kuchli reaksiya bildiradilar. Agressiv xulq o'z navbatida, o'smirning o'zini anglash jarayoniga, ijtimoiy munosabatlarga va me'yordan og'ish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Tashqi muhitdagi zo'ravonlik, oilaviy kelishmovchiliklar, maktabdagi bosim va ijtimoiy e'tiborsizlik o'smirda negativ reaksiya sifatida tajovuzni kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, noto'g'ri jazo va pedagogik xatoliklar ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ba'zi hollarda esa, tajovuz shunchaki o'zini himoya qilish shaklida yoki diqqatga sazovor bo'lish vositasi sifatida yuzaga chiqadi. Shu boisdan, har bir o'smirdagi agressivlik manbaini individual tarzda tahlil qilish zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Craig G. Human Development. NJ, 2000.
2. Vygotskiy L.S. Psixik rivojlanish muammolari. M., 1984.
3. Elkonin D.B. Yosh davrlari psixologiyasi. M., 1971
4. Buss A. The Psychology of Aggression. NY, 1961.
5. Buss A., Perry M. Aggression Questionnaire. 1992.
6. Dollard J. et al. Frustration and Aggression. Yale, 1939.
7. Bandura A. Social Learning Theory. 1977.
8. Horney K. Our Inner Conflicts. NY, 1945.
9. Asmolov A.G. Shaxs psixologiyasi. M., 2002.

⁸ Horney K. Our Inner Conflicts. NY, 1945.

⁹ Asmolov A.G. Shaxs psixologiyasi. M., 2002.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.